

**KRIPTOVALYUTALARNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH MUAMMOLARI**

Sobirova Ruxshona
ruxshonasobirova139@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-kurs
B potok 1-guruhi
Javoxir Eshonqulov - ilmiy rahbar
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiber huquq kafedrasasi o'qituvchisi
Javoxireshonqulov0724@gmail.com

Annotatsiya. Kriptovalyutalar yaratilgandan beri bahs-munozarali bo'lib kelgan. Hozirgi kunda kriptovalyutalarning to'qqiz mingdan ortiq turlari mavjud. Insonlar hech qanday shaxs yoki tashkilot nazoratisiz erkin savdo qilishlari mumkin. Rivojlanish davridan so'ng kriptovalyutalar juda ko'p foydalanuvchilarga ega bo'ldi. Yuqori daromad darajasi ham odamlarni kriptovalyutalarni ko'proq qabul qilishiga olib keldi. Biroq hali ham kriptovalyutalar sohasida bir qancha muammolar mavjud. Masalan, kriptovalyutalar va an'anaviy pul tizimlari infratuzilmasi o'rtasida jiddiy ziddiyatlar mavjud. Ushbu maqolada kriptovalyutalar, ularning eng mashhur turlari, shuningdek kriptovalyutalarning foydalari va xavlari haqida ma'lumotlar to'liq olib berilgan. Shuningdek, kriptovalyutalarni huquqiy jihatdan tartibga solishdagi muammolar va ularni hal qilishda dunyo mamlakatlarning yondashuvlari va usullari, xalqaro hamkorlik va standardlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kriptovalyuta, kripto-aktivlar, blokcheyn, moliyaviy operatsiyalar, ma'lumotlarni o'g'irlash, moliyaviy firibgarlik, maxfiylik, xizmatlar provayderlari, mayning, kripto-birja, kripto-do'kon, xalqaro hamkorlik, FATF va AML qoidalari, xalqaro standartlar.

ISSUES OF LEGAL REGULATION OF CRYPTOCURRENCIES

Abstract. Cryptocurrencies have been controversial since their inception. Currently, there are more than nine thousand types of cryptocurrencies. People can trade freely without being controlled by any person or organization. After a period of development, cryptocurrencies have gained a lot of users. High income levels have also made people more accepting of cryptocurrencies. However, there are still some problems in the field of cryptocurrencies. For example, there are serious conflicts between the infrastructure of cryptocurrencies and traditional monetary systems. In this article, information is fully disclosed about cryptocurrencies, their most popular types,

as well as the benefits and risks of cryptocurrencies. Also, the problems in the legal regulation of cryptocurrencies and the approaches and methods of the countries of the world in solving them, international cooperation and standards are mentioned.

Keywords: cryptocurrency, crypto-assets, blockchain, financial transactions, data theft, financial fraud, privacy, service providers, mining, crypto-exchange, crypto-store, international cooperation, FATF and AML regulations, international standards.

ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ КРИПТОВАЛЮТ

Абстрактный. Криптовалюты вызывают споры с момента их появления. В настоящее время существует более девяти тысяч видов криптовалют. Люди могут свободно торговать, не подвергаясь контролю со стороны какого-либо человека или организации. После периода развития криптовалюты приобрели множество пользователей. Высокий уровень доходов также сделал людей более склонными к криптовалютам. Однако в сфере криптовалют все еще существуют некоторые проблемы. Например, существуют серьезные конфликты между инфраструктурой криптовалют и традиционными денежными системами. В этой статье полностью раскрыта информация о криптовалютах, их самых популярных видах, а также о преимуществах и рисках криптовалют. Также упоминаются проблемы правового регулирования криптовалют и подходы и методы стран мира в их решении, международное сотрудничество и стандарты.

Ключевые слова: криптовалюта, криptoактивы, блокчейн, финансовые транзакции, кража данных, финансовое мошенничество, конфиденциальность, поставщики услуг, майнинг, криптобиржа, криptomагазин, международное сотрудничество, правила FATF и AML, международные стандарты.

Kirish. XXI asr – bu axborot asri. So'nggi yillarda axborotning rivojlanishi va texnologik taraqqiyot moliyaviy tizimlarda katta o'zgarishlarga olib keldi. Mana shunday jarayonlarning eng diqqatga sazovor natijalaridan biri kriptovalyutalarning vujudga kelishi bo'ldi. Hozirgi paytda deyarli har kuni "kriptovalyuta" so'zi uchramoqda, biroq juda ko'pchilik u nima ekanligini va qanday ishlashi haqida ma'lumotga ega emas. Kriptovalyuta – bu tranzaksiyalarni himoya qilish va yangi birliklarni yaratishni nazorat qilish uchun kriptografiyadan foydalanadigan raqamli yoki virtual valyuta. Kriptovalyutalar bank yoki hukumat kabi markaziy hokimiyat tomonidan tartibga solinmaydi, aksincha ular markazlashtirilmagan, ya'ni ular kompyuterlar tarmog'i tomonidan boshqariladi[1].

Hozirda mavjud kriptovalyutalarning aniq sonini aytishning imkonи yo'q – ular ba'zan paydo bo'ladi, ba'zida yo'qoladi. Kriptovalyuta tranzaksiyalarni tekshirish uchun banklarga murojaat qilmaydigan raqamli to'lov tizimi. Bu har kimga istalgan

joyda to'lovlarni jo'natish va qabul qilish imkonini beruvchi tizimdir. Mavjud dunyoda ayirboshlanadigan va almashtiriladigan jismoniy pul o'rniga, kriptovalyuta to'lovlari aniq operatsiyalarni tavsiflovchi onlayn ma'lumotlar bazasida raqamli yozuvlar sifatida mavjuddir. [2] Kriptovalyuta – bu raqamli pul, uni jismonan sezib bo'lmaydi. Chunki ular faqat foydalanuvchining kriptovalyutasi qanchalik ko'pligi va uni qayerga o'tkazishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron reysterlarda saqlanadi. Bu reysterlar blokcheynlar deb ataladi va ularni buxgalteriya hisobi bilan solishtirish mumkin. Blokcheyn bitta qurilmada saqlanmaydi, balki tarmoqning barcha ishtirokchilariga yuboriladi, bu uning barcha hujayralarini tekshirishga hamda noto'g'ri bo'lganlarni o'chirishga imkon beradi, bu holat esa blokcheyn tizimini xavfsiz va anonim qiladi, buning sababi hamyonda shaxsiy ma'lumotlar saqlanmaydi. Kripto valyuta maxsus elektron hamyonlarda saqlanadi. Ularning turli xillari mavjud va odatda har bir kriptovalyutaning o'z hamyoni bor. Uni ishlatish uchun foydalanuvchi lotin harflari va raqamlari to'plamidan iborat o'z manzilini oladi. U QR-kod sifatida ham ko'rsatilishi mumkin.[3] Kriptovalyuta birliklari tanga ishlab chiqaradigan murakkab matematik muammolarni hal qilish uchun kompyuter quvvatidan foydalanishni o'z ichiga olgan "konchilik" deb ataladigan jarayon orqali yaratiladi. Shuningdek, foydalanuvchilar valyutalarni brokerlardan sotib olishi, keyin esa ularni kriptografik hamyonlar yordamida saqlashi va sarflashi mumkin bo'ladi. Agar shaxsda kriptovalyuta bo'lsa, unda uning qo'l bilan ushlab ko'rishi mumkin bo'lган hech narsasi bo'lmaydi. U egalik qiladigan yagona narsa bu – uchinchi shaxs aralashuviziz yozuv yoki pul miqdorini bir shaxsdan boshqasiga o'tkazish imkon beradigan kalit hisoblanadi.

Asosiy qism. Kriptovalytalar zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida dunyo iqtisodiyotiga yangi yo'nalish olib keldi. Kriptoaktivlar orqali tranzaksiyalar amalga oshirilishi, moliyaviy operatsiyalarni markazlashtirilmagan tarzda amalga oshirish imkoniyati tufayli ular turli mamlakatlarga keng tarqaldi. Hozirgi kunga kelib dunyoda mavjud bo'lган kriptovalyutalarning soni 9000dan ortiqligi ma'lumdir [4]. 2024-yilning boshlariga kelib jami 2,5 milliondan ortiq kriptovalyutalar, (shu jumladan, tokenlar) yaratilgan, biroq ularning ko'plari "o'lik" deb ataladi, ya'ni endi ishlatilmaydi yoki rivojlanmagan loyihalar hisoblanadi. Bugungi kunda eng mashhur kriptovalyutalar qatoriga Bitcoin(BTC), Ethereum(ETH), Tether(USDT), Ripple(XRP), Litecoin(LTC) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Quyida ularga qisqacha ta'rif berib o'tamiz:

1. Bitcoin(BTC) – 2009-yilda "Satoshi Nakamoto" taxallusi ostidagi anonim dasturchi bitcoin tushunchasi va uning blokcheyn deb nomlanuvchi asosiy texnologiyasini ommaga tanishtirgan[5] va u bilan kriptovalyutaning tarixi boshlangan. Maqsadi – an'anaviy bank tizimlarisiz, o'rtamchilikka muhtoj bo'lмаган to'lov tizimini taqdim etishdir.

2. Ethereum (ETH) - Ethereum rossiya-kanadalik dasturchi Vitalik Buterin tomonidan asos solingan. Ethereum tushunchasi 2013-yilda paydo bo'ldi va uning rivojlanishi 2014-yilda crowdfunding orqali boshlandi. 2015-yil iyul oyida Ethereum tarmog'i ishga tushdi. Maqsadi – Bitcoin kabi oddiy to'lov vositasi emas, balki smart-kontraktlar va markazlashmagan ilovalar (Dapps) yaratishdir. [6]

3. Tether(USDT) – 2014-yilda tether Limited kompaniyasi tomonidan joriy etilgan. Tether – bu fiat valyutalaridan raqamli usulda foydalanishni osonlashtirish uchun mo'ljallangan blokcheyn bilan jihozlangan platforma.[7] Maqsadi: tether bu steyblkoin bo'lib, u o'z qiymatini AQSH dollari bilan bir xil saqlash uchun ishlab chiqilgan. Har bir USDT tokeni bitta AQSH dollariga teng bo'lishi lozim.

4. Ripple(XRP) – 2012-yilda AQSHda joylashgan Ripple Labs Inc. texnologiya kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Ripple – bu banklar tomonidan transchegaraviy va pul o'tkazmalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalilaniladigan tarmoq bo'lib, fiat va raqamli valyutalar almashinuvini osonlashtiradi. [8]

Kriptovalyutalarning foydalari va xavflari. Kriptovalyutalar moliya tizimini yanada rivojlantirdi va samarali qildi. Yuqoridagi kabi kriptovalyutalarning paydo bo'lishi odamlarga aktivlarni teroq o'tkazish imkoniyatlarini, tranzaksiya xarajatlarini arzonlashtirdi va hech qanday uchinchi tomon agentligining tranzaksiyalar uchun vositachi sifatida harakat qilishiga ehtiyoj qolmadı.[9] Kriptovalyutalarning bir qancha foydalari mavjud bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ochiq kodli dasturiy ta'minot: asosiy va ishonchli ishlab chiquvchilar guruhi tarmoq tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan kod va o'zgarishlarni tekshirish uchun zarurdir.

Markazlashtirilmagan: u to'liq taqsimlanmagan bo'lsa ham, u bir guruh shaxslar yoki yuridik shaxslar tomonidan nazorat qilinmasligi muhim ahamiyatga ega.

Global: valyuta globaldir va bu juda ijobiy nuqta va tomonlar o'rtaida aqli shartnomalar bilan yoki ularsiz moliyaviy integratsiya uchun ishlaydi.

Tez: tranzaksiya tezligi tezroq bo'lishi va tasdiqlash vaqtini qisqartirishi mumkin.

Ishonchlilik: afzalligi shundaki, hisob-kitob xavfi yo'q va u rad etib bo'lmaydi. Moliyaviy faoliyat uchun katta hisob-kitob guruhining xarajatlarini tejash juda katta bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik: maxfiylik arxitekturasi shifrlash bilan shaxsni tasdiqlovchi hujjalarni o'z ichiga olgan holda yaxshiroq ishlab chiqilishi mumkin. Agar bu amalga oshirilsa, mijozingizni bilish (KYC) va jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi (AML/TF) bilan bog'liq muammolar hal qilinadi.

Murakkab va moslashuvchan: tizim barcha turdag'i aktivlar, moliyaviy vositalar va bozorlarni qondirish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan: to'lovlar va shartnomalar uchun algoritmni bajarish osonlikcha kiritilishi mumkin.

Mashqlanishi mumkin: tizim millionlab foydalanuvchilar tomonidan ishlatalishi mumkin.

Integratsiya platformasi: bu moiaviy operatsiyalar bilan aqli shartnomalarni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli moliya va raqamli qonunni ekotizim bilan birlashtirish uchun ishlab chiqilishi mumkin. Moslashtirilgan shartnomalar bir nechta tomonlar o'rtasida bo'lishi mumkin, ularda foydalanuvchi tomonidan belgilangan skript bandlari, o'zgaruvchilar mavjud.[10]

Kriptovalyuta xavflari. O'zining foydali jihatlari bilan bir qatorda kriptovalytalarning xavflari ham mavjuddir. Kriptovalytalarning markazsizlashtirish, tranzaksiyalarning qaytarilmasligi, anonimlik va boshqalar kabi ko'plab xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar mulkni xavfsiz saqlashga o'xshaydi, ammo, shuningdek, katta xavf ham mavjud. Misol uchun, anonimlik investorlarni kriptovalyuta birjasi bankrot bo'lganidan yoki xakerlik hujumiga uchraganidan keyin o'z kriptovalytalarini qaytarib ololmaydi, shuningdek, katta mulk yo'qotish xavfiga duch keladi. Kriptovalytalarni ishlab chiquvchilar xavfni kamaytirish uchun ko'plab xavfsizlik pluginlarini yaratdilar, bu kriptovalytalarning aksariyat hollarda to'g'ri ishlashiga imkon beradi. Biroq, Kadyrov va Prokhorov tadqiqot hisobotida ta'kidlaganidek, himoya darajasi yaxshilangan bo'lsa ham, har yili kripto hamyonlaridan taxminan 200 million dollarlik aktivlar o'g'irlanadi[11]. Blokcheyn texnologiyasi va markazsizlashtirish xususiyatlari kriptovalytalarning butunlay mustaqil ishlashini aniqlaydi, bu esa kriptovalyuta operatsiyalarini huquqiy himoyadan mahrum qiladi[12]. Shu bilan birga, tranzaktsiyaning qaytarib bo'lmaydiganligi aldangan kriptovalyutani qaytarib olishni imkonsiz qiladi, bu ham aldangan kripto hamyon egasi barcha iqtisodiy yo'qotishlarni o'z zimmasiga olishini anglatadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, kriptovalytalar hali ham huquqiy yordamga ega bo'lmasa-da, ba'zi mamlakatlar va mintaqalardagi sud departamentlari allaqachon kriptovalyuta o'g'irligini jinoyat sifatida belgilashga harakat qilayotgani haqida dalillar mavjud. Misol uchun, Zaytoun tadqiqotida ta'kidlaganidek, Qo'shma Shtatlardagi shtat qonun chiqaruvchi organlari va federal huquqni muhofaza qilish idoralari kiberjinoyatlarga, ayniqsa o'g'rilikka qarshi qat'iy nazorat choralarini ko'rgan va Milliy o'g'irlangan mulk to'g'risidagi qonundan ("NSPA") kriptovalyuta operatsiyalarida firibgarlik va o'g'irlik ehtimolini hal qilish uchun asosiy hujjat sifatida foydalanilgan. [13] Bunday qonun loyihasi kriptovalyuta investitsiyalari xavfini kamaytirishga ta'sir qiladimi yoki yo'qmi hali noaniq bo'lsa-da, kriptovalytalar qonun tomonidan ma'lum bir darajada qo'llab-quvvatlanadi. Darhaqiqat, kriptovalytalarga sarmoya kiritish yuqori xavflarga duch kelishni anglatmaydi. Esmaeilzadeh, Hemang va Cousins tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'proq respondentlar kriptovalytalar mumkin bo'lgan muammolar va tizimli xavflardan ko'ra katta potentsial qiymatga ega deb hisoblashadi[14]. Misol uchun, anonimlik kriptovalyutani qaytarib ololmaslik

muammosi bo'lishi mumkin. Biroq, ko'pincha kriptovalyuta operatsiyalarida anonimlik ikkala tomonning shaxsiy maxfiyligini himoya qiladi va tranzaksiya xavfini kamaytiradi.

Kriptovalyutalarning o'ziga xosligi va huquqiy muammolar.

Kriptovalyutalarning asosiy xususiyati – ularning markazlashmaganligi. An'anaviy valyutalar, odatda, davlat yoki markaziy banklar tomonidan nazorat qilinadi, lekin kriptovalyutalar blokcheyn texnologiyasi orqali mustaqil ravishda ishlaydi. Bu holat tartibga soluvchi organlar uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki kriptovalyutalarning kim tomonidan va qanday boshqarilishi haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Hozirgi kunga kelib, kriptovalyutalarga ma'lum bir usulda emissiyasi qilganlargina ularga ega bo'lishi mumkin. Qolganlar esa virtual pullarni faqatgina boshqalardan olishlari mumkin. Buning uchun ma'lum miqdorda pul to'lashlari yoki tovar yoki xizmatga almashtirishlari mumkin. Almashinuv hech qanday vositachilarsiz amalga oshirilishi mumkin. Ammo amaliyotda bu ishni maxsus joylardagina amalga oshirish mumkin bo'lib qolmoqda. Bu esa tabiiy ravishda kriptovalyutalar bozorini vujudga keltirdi. Natijada hozirgi vaqtda kriptovalyutalar egalari ularni nafaqat haqiqiy pullarga balki boshqa turdagи virtual pullarga ham almashtirish imkoniga ega bo'lmoqdalar.[15]

Kriptovalyuta bilan bog'liq huquqiy muammolar

Bitkoin va Ethereum kabi kriptovalyutalarga jamoatchilik qiziqishi yanada ortib bormoqda, chunki ko'plab sohalar yangi texnologiyadan qanday foydalanishni o'rganishmoqda. Jamoatchilik manfaatlari ortib borayotganligi sababli kriptolar uchun yangi foydalanish deyarli har kuni rivojlanadi. Kriptovalyutalarning yangi qo'llanilishi paydo bo'lganda, uning potentsial yuridik majburiyatlari ham paydo bo'ladi. Umumiy muammolar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Shartnoma masalalari

Blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalarning eng yorqin xususiyatlaridan biri bu ularning o'z-o'zidan amalga oshirilayotgan "aqli shartnomalari"dir. Aqli kontraktlar - bu odatda raqamli formatda ko'rsatilgan va'dalar to'plami bo'lib, ular tranzaktsiyada tomonlar o'zlarining aniq va'dalarini bajarishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aqli shartnoma boshqa tomon shartnoma majburiyatlarini bajarganda avtomatik ravishda to'laydi. Aqli shartnomalarning o'ziga xos tabiatи va o'ziga xos murakkabligi tufayli ular an'anaviy shartnoma huquqining huquqiy bazasiga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlash qiyin.

Yurisdiksija masalalari

Kriptovalyutalarga asos bo'lgan blokcheyn texnologiyasining asosiy g'oyasi shundaki, u kirim-chiqim kitobning haqiqiy joylashuvini aniqlashning hech qanday usulini o'z ichiga olmaydi. Shunga ko'ra, blokcheynda amalga oshirilgan tranzaksiyalar an'anaviy platformalarda o'tkaziladigan tranzaktsiyalarga qaraganda ko'proq maxfiylikni ta'minlaydi. Ammo bu afzallik murakkab yurisdiksija

muammosini keltirib chiqaradi. Birinchidan, kripto bitimining tugunlari turli yurisdiksiyalarda joylashganligi sababli, ular bir-biriga qarama-qarshi huquqiy bazaga duch kelishi mumkin. Ikkinchidan, kriptovalyuta dasturiy ta'minoti uchun "yashash mamlakati" daftarning jismoniy joylashuvi yo'qligi sababli aniqlash qiyin. Uchinchidan, blokcheynning transmilliy tabiatи amaldagi qonunlarni aniqlash va blokcheyn nizolari uchun to'g'ri yurisdiksiyani tanlashni juda qiyinlashtiradi. Har qanday milliy regulyator uchun blokcheyn foydalanuvchilari, tranzaksiyalari yoki loyihalari o'rtaida qonunlarni qo'llash texnologiyaning transchegaraviy kirishi tufayli muhim vazifadir.[16]

Ma'lumotlarni o'g'irlash va moliyaviy firibgarlik

Ma'lumotlar o'g'irlanishi va moliyaviy firibgarlik kriptovalyutalar bilan bog'liq qo'shimcha dolzarb qonuniy muammolardir. Blokcheynning anonimlik va'dasi va uning qoidalardan aniq erkinligi - noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanadigan ko'plab foydalanuvchilarni o'zlarining moliyaviy operatsiyalari uchun kriptovalyutalardan foydalanishga undashi mumkin.

2017-yilda Kornell universiteti tadqiqotchisi Ethereum blokcheynidagi jiddiy xavfsizlik kamchiligini aniqladi, bu esa 250 million dollarni o'g'irlik xavfi ostida qoldirdi. Xuddi shunday, kripto hamyon ishlab chiqaruvchisi Ledger yaqinda ma'lumotlar xavfsizligini buzgan holda 1 million elektron pochta manzilini buzdi. Ledgerning 9500 mijozining to'liq ismlari, pochta manzillari va telefon raqamlari kabi shaxsiy ma'lumotlariga kirish ham o'g'irlangan. Mavjud ma'lumotlar to'g'risidagi qonunlar kriptovalyutalardan kelib chiqadigan ma'lumotlar o'g'irlanishi va moliyaviy firibgarlikni bartaraf eta oladimi yoki yo'qmi, noaniq qolmoqda.[17]

Maxfiylik tashvishlari

Maxfiylik bilan bog'liq muammolar kriptovalyuta sohasida ma'lumotlarni o'g'irlash bilan chambarchas bog'liq. Ko'rib turganimizdek, Bitcoin kabi kriptovalyutalarni joriy etishning asosiy sabablaridan biri foydalanuvchilar o'rtaсидаги tranzaksiyalarda anonimlikni ta'minlash edi. Biroq Chainalysis ushbu anonimlikni blokcheyn tahliliy vositalarining doimiy takomillashuvi bilan tahdid qilishini ko'rsatdi. Blokcheyn analitik firmasi Zcash va Dash tranzaksiyalarining aksariyat qismini kuzatishi mumkinligini da'vo qildi va bu "maxfiylik tangalari" ni noto'g'ri nomga aylantirdi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha keng qamrovli federal tizim mavjud emas. Buning o'rniga, sohaga oid maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi qonunlari va qoidalari qo'llaniladi, masalan, Gramm-Lich-Bliley qonuni, Sog'liqni saqlash sug'urtasi portativligi va javobgarligi to'g'risidagi qonun (HIPAA) va Kaliforniya iste'molchi maxfiyligi to'g'risidagi qonun (CCPA). Amerika Qo'shma Shtatlarning mavjud maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi qonunlari va qoidalari blokcheyn texnologiyasi tufayli yuzaga kelgan maxfiylik muammolarini hal qilmaydi. Masalan, blokcheyn texnologiyasining taqsimlangan "peer-to-peer"

tarmog'i arxitekturasi CCPAning markazlashtirilgan, boshqaruvchiga asoslangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi haqidagi an'anaviy tushunchasiga zid deb hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, CCPA ning markazlashtirilgan boshqaruvchiga asoslangan ishlov berish haqidagi taxmini kriptovalyutalar uchun qo'llanilmaydi, chunki u yangi texnologiyaning markazlashtirilmagan xususiyatini e'tiborga olmaydi.

Qiyosiy tahlil. Kriptovalyutalar bilan bog'liq bunday huquqiy muammolarni hal qilishda bir qancha yondashuvlar mavjud va ular davlatdan davlatga farq qiladi.

Argentina. Virtual valyutalar Markaziy bankni qonuniy to'lov vositasini chiqarishi mumkin bo'lgan yagona organ sifatida belgilaydigan mamlakat Milliy Konstitutsiyasiga muvofiq qonuniy to'lov vositasi emas.[18]

AQSh kriptovalyutalar sohasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, bu yerda tartibga solish jarayonlari asosan bir nechta agentliklar tomonidan olib boriladi. Masalan, AQSh Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) kriptovalyutalarga qimmatli qog'ozlar sifatida qarashi mumkin, bu esa ularni qattiqroq nazorat qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, AQSh Moliya vazirligi FinCEN (Financial Crimes Enforcement Network) orqali kriptovalyutalardan jinoiy maqsadlarda foydalanishni oldini olishga harakat qilmoqda. Biroq, AQShdagi tartibga solish tizimi bir xil emas va turli shtatlar bu borada turli xil qonunlar qabul qilishgan. Masalan, Nyu-York shtatida kriptovalyutalar bilan ishlash uchun maxsus BitLicense litsenziyasi talab qilinadi, bu esa kompaniyalar va foydalanuvchilar uchun qo'shimcha tartibga solish yuklamalarini keltirib chiqarmoqda.

Avstraliyada virtual valyuta moliyaviy mahsulot hisoblanmaydi va shuning uchun kriptovalyuta faoliyati litsenziyalanmaydi (fiat pul yoki boshqa moliyaviy vositalar bilan bog'liq faoliyat bundan mustasno). Avstraliya Raqamli Valyuta va Savdo Assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Avstraliya Raqamli Valyuta Industriyasining Xulq-atvor kodeksi(The Australian Digital Currency Industry Code of Conduct) mamlakatda kriptovalyuta biznesini yuritish uchun tegishli standartlarni belgilaydi, lekin faqat Uyushma a'zolari uchun bajarilishi majburiydir.[19]

Kanada o'rnatilgan bitcoin bankomatlari soni bo'yicha dunyoda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Kanadada kriptovalyuta yordamida tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lov barter operatsiyasi sifatida soliqqa tortiladi. Raqamli valyutani sotishda daromad solig'i, korporativ daromad solig'i yoki sarmoyadan olinadigan daromad solig'i undiriladi.[20]

Yevropa Ittifoqi va Yevropa mamlakatlarining pozitsiyasi. Yevropa Ittifoqida kriptovalyutalar bo'yicha yagona tartibga solish mexanizmi hali to'liq shakllanmagan, lekin Ittifoqning ba'zi mamlakatlari allaqachon o'z qonunchiligini ishlab chiqqan. Misol uchun, Germaniya kriptovalyutalarni moliyaviy vosita sifatida qabul qilgan va ularni moliyaviy tashkilotlar tomonidan boshqariladigan aktivlar sifatida tartibga

solistgiga kirishgan.

Yevropa Ittifoqi esa umumiylar qoidalarni belgilash uchun yangi “Markets in Crypto-assets” (MiCA) reglamenti loyihasini ishlab chiqmoqda. MiCA reglamenti orqali kriptovalyutalar bozoridagi tartibga solishning bir xil standartlarini yaratish va investorlarni himoya qilish maqsad qilingan. Bu, ayniqsa, kriptovalyutalarning o’zgaruvchan narxlari va jinoiy faoliyatlar uchun ishlatilish ehtimoli yuqori ekanligi tufayli juda muhimdir.[21]

Rossiya Federatsiyasi. 2017 yil aprel oyida Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki virtual valyutani raqamli tovar sifatida tan oldi va 2018 yil fevral oyida Rossiya Dumasi kriptovalyuta qonunchiligini - raqamli aktivlar to’g’risidagi Federal qonun loyihasini muhokama qilishni boshladi.[22]

Qonun loyihasida konchilik kriptovalyuta ko‘rinishida mukofot olish maqsadida kriptovalyuta va/yoki validatsiya yaratishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati ekanligi nazarda tutilgan. Kriptovalyuta raqamli operatsiyalar reysterini yuritish qoidalari muvofiq ushbu reestr ishtirokchilari tomonidan raqamli tranzaktsiyalarning taqsimlangan reysterida yaratilgan va hisobga olinadigan raqamli moliyaviy aktivning turi sifatida aniqlanadi. Kriptovalyutalarning aylanish qoidalari qonun loyihasi bilan belgilanmagan va kelajakda alohida belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasida kripto-aktivlarni huquqiy tartibga solish.

Bugungi kunga kelib O’zbekiston Respublikasida ham kripto-aktivlar aylanmasi sohasiga qiziqish ortib bormoqda. Yurtimizga oid statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2022-yilning mart-avgust oylari davomida har haftada O’zbekiston hududiga 23-180 million AQSH dollariga teng miqdorda kripto-aktivlar kirib, 20-160 million AQSH dollariga teng miqdordagi kripto-aktivlar chiqib ketgan. [23]

Hozirda ushbu sohani tartibga solish bo’yicha bir qator qarorlar qabul qilingan. Masalan, Prezidentimizning 2018-yil 3-iyuldagagi “O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan xizmatlar provayderlarining kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy, kripto-do’kon singari turlari belgilangan.[24]

Alovida qayd etish kerakki, mazkur faoliyatni yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan davlatimiz rahbarining “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjalari o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblash to’g’risida”gi 2022-yil 27-apreldagi farmonida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga litsenziya berish uchun davlat boji miqdori va uni to’lash hamda sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridan o’tish tartiblari Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan belgilanishi ko‘rsatilgan.[25] Endilikda agentlikning ushbu vakolatlari Senatning qirq uchinchi yalpi majlisida ma’qullangan “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalar va ruxsat berish tartib-

taomillari tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha hamda o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan mustahkamlanmoqda. Ushbu qonun asosida "Davlat boji to'g'risida"gi qonunning to'ldirilgan moddasiga ko'ra, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olayotgan yuridik shaxslar davlat bojini Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan belgilanadigan miqdor va tartibda to'laydi.[26]

O'zbekiston fuqarolari faqatgina Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan litsenziyaga ega bo'lган xizmat provayderlari - kripto do'kon, kripto birja va kripto depozetariylar orqali kripto operatsiyalarni amalga oshirishlari shart. Hozirgi kungacha litsenziyaga ega bo'lган kripto birjalar:

- "Uznex" birjasi ("Kobeo Group" MCHJ qarashli) ilovasi va sayti orqali kripto operatsiyalarni amalga oshirish qonuniy hisoblanadi.

- "Kobeo Group" MCHJ xorijiy korxonasi #0001 sonli litsenziyani 28.08.2022 sanasida qo'lga kiritgan.

- "COINPAY" MChJ tomindan kripto-birja sifatida litsenziyalarga ega. Lekin, ushbu kompaniya hozirgacha ilova yoki saytlarini ishlab chiqarishmagan bo'lib, faqatgina kripto do'kon sifatida offline xizmat ko'rsatishadi.

Hozirga kungacha "O'zbekistonda 2 ta kompaniya kripto-birja faoliyatini amalga oshirish uchun, 10 ta kompaniya kripto-do'kon yuritish uchun, 2 ta kompaniya esa kripto-depozetariy sifatida litsenziyaga ega. Mayning faoliyati uchun hech bir tashkilot litsenziyaga ega emas.

Kripto do'kon sifatida litsenziyaga ega "CRYPTO TRADE NET", "CRYPTO MARKET" "CRYPTO EXPRESS" "COINPAY" "C-BASE" "PAYNET CRYPTO" "CRYPTOCORP" "C-CASH" "T-FIRM" "T-REX" kabi kripto-do'kon kompaniyalari qonuniy faoliyat olib borishmoqda.

Kriptovalyutalar xalqaro bozorlar uchun muhim vosita bo'lganligi sababli, ularni tartibga solishda xalqaro hamkorlik muhim rol o'yaydi. Turli davlatlarda qabul qilinadigan qoidalar o'rtaсидаги farqlar va nomuvofiqliklar xalqaro darajadagi operatsiyalarni murakkablashtiradi. Shu sababli, xalqaro miqyosda yagona standartlarni ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir.

Xalqaro hamkorlik va tartibga solish standarti

Kriptovalyutalarni tartibga solishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurati tobora ortib bormoqda. Masalan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki kabi xalqaro moliyaviy institutlar kriptovalyutalar bo'yicha umumiyligi qoidalarni ishlab chiqishga harakat qilishmoqda. Ushbu qoidalar yordamida kriptovalyutalarning noqonuniy faoliyatlarda qo'llanilishining oldini olish va soliq to'lovlarini ta'minlash rejalashtirilmoqda. Shuningdek, kriptovalyutalar bilan bog'liq soliq masalalarini hal qilishda xalqaro hamkorlik muhimdir. Har bir davlatda kriptovalyutalardan olinadigan soliqlar bo'yicha turli qoidalar mavjud bo'lsa-da, global operatsiyalarni tartibga

solistda umumiy soliq standartlarini yaratish talab etiladi.

FATF va AML qoidalari

Xalqaro darajada kriptovalyutalar bilan bog‘liq jinoiy faoliyatlarni oldini olish uchun qabul qilingan eng muhim qoidalar bu FATF (Financial Action Task Force) tomonidan ishlab chiqilgan pul yuvishga qarshi kurash (AML – Anti Money Laundering) qoidalaridir. FATF qoidalari davlatlarga kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarni kuzatib borish va pul yuvishga qarshi kurashishda yordam berish uchun maxsus yondashuvlarni tavsiya qiladi. Ushbu qoidalar orqali davlatlar kriptovalyutalarning noqonuniy faoliyatlarda qo‘llanilishiga qarshi samarali choralarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. FATF qoidalari, shuningdek, kriptovalyutalar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar va tashkilotlar uchun oshkorlikni ta’minlashni talab qiladi, bu esa jinoiy faoliyatlarni oldini olishda muhim hisoblanadi.

Xulosa. Kriptovalyuta – bu moliya kelajagiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan yangi va rivojlanayotgan texnologiya. Kriptovalyutani investitsiya qilish yoki ishlatishdan oldin unga bog‘liq foyda va xavflarni ham tushunish muhim hisoblanadi. Ularning paydo bo’lishi bilan investorlar, tadbirkorlar hamda ishlab chiqaruvchilar uchun ko’plab yangi imkoniyatlar paydo bo’ldi. Kriptovalyutalar va kriptoaktivlarning asosiy tamoyillarini tushunib yetish har bir foydalanuvchiga tez rivojlanayotgan ushbu sohada ongli moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda bugungi kunga kelib kriptovalyutalarni huquqiy tartibga solish muammolari ham tobora dolzarb bo’lib bormoqda va bu sohada xalqaro hamkorlik va umumiy qoidalar ishlab chiqish zarurati yaqqol namoyon bo’lmoqda. Kriptovalyutalar bir tomonidan yangi imkoniyatlar va innovatsiyalarni taqdim etsa, boshqa tomonidan, davlatlar uchun jiddiy xavf va chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, bu sohani samarali tartibga solish uchun xalqaro darajada hamkorlik qilish, xalqaro qoidalarni ishlab chiqish va milliy qonunchiliklarni takomillashtirish muhimdir. Kriptovalyutalar global miqyosda foydalanilyotgani sababli, davlatlararo qoidalar va talablarni bir xilda qilish muhimdir. Xalqaro darajadagi koordinatsiya va umumiy qoidalar milliy qonunchiliklarda turli xil tafovutlarni bartaraf etishga transchegaraviy moliyaviy tranzaksiyalarda barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi. Shuningdek davlatlar kriptovalyuta sohasidagi muammolarni bartaraf etish va tartibga solish orqali xatarlarni kamaytirib, foydalanuvchilar uchun adolatli va xavsiz muhitni ta’minlashlari zarurdir.

O’zbekiston Respublikasi “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi” nizom umumiy qoidalar qismiga o’zgartirish kiritish bo'yicha taklif.

O’zbekiston Respublikasi “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi” nizom umumiy qoidalar

qismida quyidagilar mustahlamlangan:

Joriy tahlil: Mazkur Nizom kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

kripto-aktiv — ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq;

ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri — ma'lumotlarni ixtisoslashtirilgan bloklarda taqsimlovchi texnologiya bo'lib, bunda har bir yangi blok oldingi blok bilan kriptografik imzo orqali bog'lanadi;

kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari (bundan buyon matnda xizmatlar provayderlari deb yuritiladi) — jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayriboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;

Tavsiya tiladigan tahlil: Mazkur Nizom kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

kripto-aktiv — ma'lumotlarning taqsimlangan reyestridagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq;

kriptografik imzo — bu raqamli hujjat yoki xabarni haqiqiyligini va butunligini tekshirish uchun ishlataladigan matematik usul. U ko'pincha shaxsni autentifikatsiyalash va hujjatlarning o'zgarmaganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi;

ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri — ma'lumotlarni ixtisoslashtirilgan bloklarda taqsimlovchi texnologiya bo'lib, bunda har bir yangi blok oldingi blok bilan kriptografik imzo orqali bog'lanadi;

kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari (bundan buyon matnda xizmatlar provayderlari deb yuritiladi) — jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayriboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar;

Asos: Ushbu nizomga mazkur atamani kiritishning bir qancha sabablari mayjud. Kriptografik imzo kriptovalyuta sohasida muhim rol o'ynaydi, chunki u tranzaksiyalarning xavfsizligi, ishonchliligi va qonuniyligini ta'minlaydi. Kripto valyutalarda kriptografik imzo quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

1. Tranzaksiyalarni autentifikatsiyalash va tasdiqlash

Kripto valyutalarda foydalanuvchilar o‘z tranzaksiyalarini shaxsiy kalit yordamida imzolaydilar. Bu imzo orqali tranzaksiyaning haqiqiy egasi tomonidan amalga oshirilganlik holati tasdiqlanadi. Foydalanuvchining shaxsiy kaliti maxfiy saqlanganligi sababli tranzaksiya faqat shu kalit egasi tomonidan amalga oshirishi mumkin.

2. Xavfsizlik va firibgarlikka qarshi himoya

Kriptografik imzo orqali tasdiqlangan tranzaksiyalar blokcheyn tarmog‘ida o‘zgartirilmaydigan va qaytarib bo‘lmaydigan qilib yoziladi. Shu orqali firibgarlikning oldi olinadi, chunki tranzaksiyani tasdiqlash uchun kalit juftligi (shaxsiy va ochiq kalit) kerak bo‘ladi va shaxsiy kalitni bilmagan shaxs bu tranzaksiyani o‘zgartira olmaydi.

3. Tranzaksiyalarning butunligini ta’minlash

Kriptografik imzo tranzaksiya o‘zgartirilmaganligini tasdiqlaydi. Agar kimdir tranzaksiya ma’lumotlarini o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, hash qiymati o‘zgaradi va imzo yaroqsiz holga kelib qoladi. Bu kripto valyutalardagi mablag‘ harakatining butunligini va ishonchlilagini ta’minlaydi.

4. Markaziy nazoratsiz ishlashni ta’minlash

Kriptografik imzolar markaziy vositachilarsiz, ya’ni bank yoki hukumat nazoratisiz tranzaksiyalarni tasdiqlashga imkon beradi. Bu markazlashmagan tarmoqlarda (masalan, Bitcoin yoki Ethereum) ishonchli tranzaksiya mexanizmini yaratadi.

5. Shaxsiylikni saqlash

Kriptovalyutalarda kriptografik imzolar foydalanuvchining shaxsiyligini saqlaydi, chunki foydalanuvchilar faqat o‘z kalitlari orqali tan olinadi. Bu esa anonimlikni ta’minlaydi va tranzaksiyalar faqat ochiq kalit bilan bog‘lanadi, foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilmaydi.

Kriptografik imzo kriptovalyuta sohasining asosini tashkil etadi. U nafaqat tranzaksiyalarning xavfsizligini, balki butun tarmoqning ishonchli ishlashini ta’minlab va blokcheyn texnologiyasini samarali ishlashini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Cryptocurrency the World of Digital Finance.
<https://invexi.org/uz/press/cryptocurrency-the-world-of-digital-finance/>
2. Kriptovalyuta nima va u qanday ishlaydi?, Avgust 2021.
<https://depozit.uz/news/kriptovalyuta-nima>
3. Kriptovalyuta va uning turlari, 2009. (<https://tarix.sinaps.uz/hodisa/kriptovalyuta/>)
4. Dead or Alive: Number of Cryptocurrencies Worldwide from 2013 to January 2024
<https://cryptonews.com/exclusives/dead-or-alive-number-of-cryptocurrencies-globally-2013-2024/>
5. Blockchain Texno. Bitkoin va uning foydalanish asoslari. Oktabr 2023.
<https://www.blockchaintexno.uz/news/bitkoin-nima%3F>
6. Ethereum nima va u qanday ishlaydi? Cryptomus, Iyun 2024.

<https://cryptomus.com/uz/blog/what-is-ethereum-eth-and-how-it-works?srsltid=AfmBOorgy2xTN9zFpaVkJutORJ05gpqsA9SNp5NwpNmBPDsnMcK6Y>

7. Driving the Future of Money,2024. (<https://tether.to/en/>)
8. Blockchain Texno. Ripple (XRP) nima? Ripple afzalliklari va kamchiliklar. [https://www.blockchaintexno.uz/news/ripple-\(xrp\)-nima%3F](https://www.blockchaintexno.uz/news/ripple-(xrp)-nima%3F)
9. Sudzina, F. (2018) 'Distribution of Foreign Aid in Cryptocurrencies: Initial Considerations', International advances in economic research, 24(4), pp. 387-388. doi: 10.1007/511294-018-9715-7.
10. Irina Cvetkova "Cryptocurrencies legal regulation". Brics Law Journal Volume V(2018) Issue 2.

<https://elib.utmn.ru/jspui/bitstream/ru-tsu/16707/1/156-291-1-SM.pdf>

11. Kadyrov, R. E., & Prokhorov, I. V. (2018). 'Regulating cryptocurrencies: new challenges to economic security and problems created by individuals involved in the schemes of laundering cryptocurrencies-generated profits'. KnE Social Sciences, 383-393.
12. Khairuddin, I. E., Sas, C., Clinch, S., & Davies, N. (2016). 'Exploring motivations for bitcoin technology usage'. In Proceedings of the 2016 CHI Conference Extended Abstracts on Human Factors in Computing Systems (pp. 2872-2878).
13. Zaytoun, H.S. (2019) 'Cyber Pickpockets: Blockchain, Cryptocurrency, and the Law of Theft', North Carolina law review, 97(2), p,395.
14. Esmaeilzadeh, P.,

Hemang, S., & Cousins, K. (2019). 'Individuals' cryptocurrency adoption: A proposed moderated-mediation model'.

15.KRIPTOVALYUTALARNI TARTIBGA SOLISH: ISTIQBOLLAR VA MUAMMOLAR (<http://kompy.info/texnologiyalar-muammolar-yechimlar-va-istiqbollar-mavzusidagi.html>)
<http://kompy.info/kriptovalytalarni-tartibga-solish-istiqbollar-va-muammolar.html>

16. Legal Issues Surrounding by Cryptocurrency.
<https://freemanlaw.com/legal-issues-surrounding-cryptocurrency/>
17. Ignacio Olivera Doll & Camila Russo, Argentina's Biggest Futures Market Plans to Join the Bitcoin Party, Bloomberg, 2 November 2017 (Jun. 18, 2018), available at <https://www.bloomberg.com/news/articles/2017-11-02/argentina-s-biggest-futures-market-plans-to-join-bitcoin-party>.
18. Tax Treatment of Cryptocurrencies, supra note 16.
19. Government of Canada, What You Should Know About Digital Currency (Jun. 18, 2018), available at <https://www.canada.ca/en/revenue-agency/news/newsroom/fact-sheets/fact-sheets-2013/what-you-should-know-about-digital-currency.html>.
- 21.<https://www.esma.europa.eu/esmas-activities/digital-finance-and-innovation/markets-crypto-assets-regulation-mica>

22. Проект федерального закона "О цифровых активах" [Federal Law Draft "On Digital Assets"] (Jun. 18, 2018), available at https://www.minfin.ru/ru/document/?id_4=121810.

23. Shokirov Bekzod Sherzod O‘g‘li O‘ZBEKİSTONDA KRIPTO-AKTİVLAR SOHASIDAGI KİBERJINOYATLARUCHUN JAVOBGARLIKNI

TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR // EJSSPC. 2024. №6-1.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-kripto-aktivlar-sohasidagi-kiberjinoyatlaruchun-javobgarlikni-takomillashtirish-borasidagi-islohotlar>(дата обращения: 27.10.2024)

24. “O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.

<http://lex.uz//docs/-3806053>

25. “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblash to’g’risida”gi 2022-yil 27-apreldagi farmoni

<http://lex.uz//docs/-5985785>

26. O’zbekiston Respublikasi “Davlat boji to’g’risida”gi qonuni.

<http://lex.uz//docs/-4680944>

27. O’zbekiston Respublikasi “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to’g’risida”gi qonuni.

<http://lex.uz//docs/-5511879>

28. Blockchain Texno, O’zbekistonda qonuniy kripto-aktivlar faoliyatini olib borish mumkinmi. Fevral,2024.

<https://www.blockchaintexno.uz/news/o%E2%80%98zbekistonda-qonuniy-kripto-aktivlar-faoliyatini-olib-borish-mumkinmi%3F>

29. Eshonqulov, Javoxir. "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO'LIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI."

Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52.

30. Javokhir Eshonkulov “Legal Foundations for the Application of Artificial Intelligence Technologies in the Sports Industry” American Journal of Education and Evaluation Studies Том 1, No.7, 2024/10/4, 240-247